
RISHTON TUMANIDA BARPO ETILAYOTGAN “NURAFShON” MASSIVIDA KO’P QAVATLI UYLAR QURILISHI YAKUNLANMOQDA

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat sektorlari rahbarlari bilan birga Rishton tumanidagi M.Topvoldiev MFY hududida barpo etilayotgan ko’p qavatli uylardan iborat bo’lgan “Nurafshon” massivida bo’ldi.

Ushbu massivda jami 310 xonadondan iborat 9 ta ko’p qavatli turar-joy binosi qurilishi rejalashtirilgan bo’lib, ularning 5 tasi foydalanishga topshirilishga tayyor. 4 ta binoda qurilish ishlari davom etmoqda. Zamonaviy loyiha asosida qurilayotgan uylarda odamlarning hayotdan rozi bo’lib yashashi uchun barcha qulayliklar e’tiborga olingan bo’lib, lift ham mavjud.

Viloyat hokimi qurilish hamda atrofni obodonlashtirish ishlarini sifatli yakunlash bo’yicha mas’ullarga ko’rsatma berdi.

Massiv “Rus-O’zbekteks” paxta-to’qimachilik klasteri qoshida tashkil etilayotgan 1100 ishchi o’rinli to’qimachilik fabrikasining yonida joylashgani, yangi xonadonlar egalarining doimiy ish o’rniga ega bo’lishlarini ta’minlaydi.

Viloyat rahbari shuningdek, "Business Partners" MChJ tomonidan amalga oshirilayotgan, qiymati 4,2 milliard so’m bo’lgan “Ayollar mehnat guzari, ayollar hunarmandchilik o’quv markazi va maishiy xizmat ko’rsatish markazi” loyihasi qurilishi jarayonlarini ham ko’zdan kechirdi.

2022-09-17 05:32:52